




## JINOYAT ISHLARINI TAFTISH TARTIBIDA KO'RISHDA ADVOKAT ISHTIROKINING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI VA ISLOHOTLAR TA'SIRI

**Nurimova Gulnaz Qurbanbayevna**

Qoraqalpoq Davlat Universiteti,

Advokatlik faoliyati mutahassisligi 1- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18654436>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 31-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 12-fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 16-fevral 2026 yil

#### KEY WORDS

*advokat, taftish tartibi,  
jinoyat protsessi, himoya huquqi,  
sud qarori, yuqori instansiya.*

### ABSTRACT

*Mazkur ilmiy maqolada advokatning jinoyat protsessida, xususan taftish tartibida jinoyat ishini ko'rish bosqichidagi protsessual maqomi, huquq va majburiyatlari, shuningdek uning ishtiroki orqali adolatli sudlovni ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Taftish instansiyasida himoyachining faoliyati sud qarorlarining qonuniyligi va asosililigini tekshirishda muhim protsessual kafolat sifatida baholanadi.*

Huquqiy demokratik davlatda shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlashning asosiy kafolatlaridan biri bu malakali yuridik yordam olish huquqi. Jinoyat ish yuritish jarayonida ushbu kafolat advokat faoliyati orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, sud qarorlari ustidan yuqori instansiya tartibida qayta ko'rib chiqish bosqichi bo'lgan taftish tartibida advokatning ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur bosqich sud xatolarini bartaraf etish, qonuniylikni tiklash va adolatli yakuniy qaror qabul qilinishiga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini tubdan modernizatsiya qilish, jinoyat-protsessual qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda inson huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash, sud nazoratini kuchaytirish va advokat institutining rolini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur strategik yo'nalishlar jinoyat ishlarini qayta ko'rib chiqish bosqichlarida, jumladan taftish tartibida himoya huquqining samarali ta'minlanishini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shu nuqtai nazardan, advokatning taftish tartibida jinoyat ishini ko'rish jarayonidagi protsessual maqomi, vakolatlari va ularning amaliy ahamiyatini ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Taftish tartibi bu qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini yuqori instansiya sudi tomonidan tekshirishga qaratilgan jinoyat-protsessual bosqichdir. Ushbu bosqichning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: sud xatolarini aniqlash va bartaraf etish, qonun normalarining to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash, shaxsning buzilgan huquqlarini tiklash, sud amaliyotining yagona va barqarorligini shakllantirish. Taftish instansiyasi jinoyat ishining yangi faktik holatlarini emas, balki mavjud materiallar asosida sud qarorining qonuniyligini baholaydi. Shu sababli ushbu bosqichda advokatning huquqiy tahlilga asoslangan faoliyati muhim hisoblanadi.

Advokat jinoyat protsessida mustaqil protsessual subyekt sifatida himoya funksiyasini amalga oshiradi va taftish bosqichida ham faol ishtirok etadi. Uning protsessual maqomi, avvalo, sud qarorlari ustidan taftish shikoyati kiritish huquqi bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, advokat ish materiallari bilan tanishish, ularni har tomonlama tahlil qilish, sud majlislarida ishtirok etish va nutq so'zlash vakolatiga ega. Shu jihatdan, advokatning taftish bosqichidagi ishtiroki himoya huquqining muhim kafolati hisoblanadi. Mazkur vakolatlar himoya huquqining real amalga oshirilishini ta'minlaydi hamda sudlov jarayonining tortishuvlilik tamoyiliga mos keladi.

Taftish bosqichida advokat jinoyat protsessining muhim va mustaqil subyekti sifatida himoya funksiyasini davom ettiradi. Uning faoliyati, avvalo, sud qaroridan norozi bo'lgan hollarda asoslantirilgan taftish shikoyatini tayyorlash va kiritish orqali namoyon bo'ladi. Mazkur shikoyatda sud tomonidan yo'l qo'yilgan moddiy va protsessual xatolar, dalillarning noto'g'ri baholanishi, jazoning asossiz yoki og'irligi hamda oqlovga asos bo'luvchi holatlar huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Shikoyatning puxtaligi taftish instansiyasi qaroriga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Taftish instansiyasi sud majlisida advokatning ishtiroki tortishuvlilik va protsessual tenglik prinsiplarining amaliy ifodasidir. Advokat sud majlisida shikoyat vajlarini asoslaydi, avvalgi sudlov jarayonida sodir etilgan qonun buzilishlarini ko'rsatadi hamda sud qarorini bekor qilish yoki o'zgartirishni so'raydi. Yakuniy nutq esa himoyachining huquqiy pozitsiyasini tizimli ravishda ifodalash va mijoz manfaatlarini himoya qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Advokatning faol ishtiroki taftish instansiyasi qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, sud hukmini bekor qilish, ishni qayta ko'rib chiqishga yuborish, jazoni yengillashtirish yoki shaxsni oqlash kabi natijalarga olib kelishi mumkin. Shu bois advokat faoliyati nafaqat individual himoya mexanizmi, balki sud amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy omil hamdir.

Shu bilan birga, amaliyotda taftish bosqichida advokat ishtirokiga doir ayrim muammolar shikoyatlarni yuzaki ko'rib chiqish, dalillar keltirish imkoniyatlarining cheklanganligi va sud qarorlarining yetarli darajada asoslanmasligi uchrab turadi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun advokat vakolatlarini kengaytirish, sud qarorlarini motivatsiyalash talablarini kuchaytirish hamda himoya huquqining real ta'minlanishini nazorat qiluvchi mexanizmlarni rivojlantirish zarur. Natijada, taftish bosqichida advokatning faol va malakali ishtiroki odil sudlovni ta'minlashning muhim kafolatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

2019-yil dekabr oyida davlat rahbari tomonidan jinoyat-protsessual qonunchilikni yanada takomillashtirish, xususan manfaatdor shaxslarga prokuror, surishtiruvchi yoki tergovchining qarorlari ustidan bevosita sudga shikoyat qilish huquqini berish masalasi ilgari surildi. Ushbu topshiriq asosida Oliy sud tomonidan Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi hamda Adliya vazirligi bilan hamkorlikda Jinoyat-protsessual kodeksiga tegishli o'zgartishlar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Qonun loyihasida manfaatdor shaxslar doirasi qarorlar kesimida aniq belgilab berildi. Jumladan, taftish o'tkazish to'g'risidagi qaror ustidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi hamda tekshirilayotgan subyektning vakolatli vakili shikoyat qilish huquqiga ega etib belgilandi. Jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror ustidan esa o'ziga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan shaxs, ayblanuvchi, uning himoyachisi va qonuniy vakili shikoyat berishi mumkinligi ko'zda tutildi. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qaror ustidan jinoyat sodir etilganligi haqida xabar bergan fuqaro yoki tashkilot vakiliga murojaat qilish huquqi berildi.

Shuningdek, jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv yoki dastlabki tergovni to'xtatish, yoxud ishni tugatish haqidagi qarorlar ustidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ularning himoyachilari,

jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va javobgar hamda ularning vakillari shikoyat qilishi mumkinligi nazarda tutildi. Qarorlarning ko'chirma nusxalarini manfaatdor shaxslarga taqdim etish, ularda shikoyat qilish tartibini ko'rsatish hamda ayrim qarorlarni uch kun ichida yetkazish majburiyati belgilandi.

Qonun loyihasiga ko'ra, taftish o'tkazish, jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish haqidagi qarorlar ustidan o'n kun ichida, tergovni to'xtatish yoki ishni tugatish haqidagi qarorlar ustidan esa bir yil ichida shikoyat berish mumkin. Shikoyat prokuror orqali tegishli sudga yuboriladi hamda prokuror uch kun ichida qarorni bekor qilish yoki materiallar bilan birga sudga kiritish vakolatiga ega bo'ladi. Sud shikoyatni besh kun ichida yakka tartibda ko'rib chiqadi. Sud majlisida shikoyat beruvchi shaxs, uning himoyachisi, vakili, tergov organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi hamda prokuror ishtirok etishi mumkin. Ko'rib chiqish yakuniga ko'ra sud shikoyatni rad etish yoki qarorni bekor qilish to'g'risida ajrim chiqaradi. Mazkur ajrim ustidan xususiy shikoyat yoki apellyatsiya tartibida taqdimnoma berish imkoniyati ham saqlab qolinadi.

Ushbu o'zgarishlar jinoyat protsessida sud nazoratini kuchaytirish, shaxs huquqlarini samarali himoya qilish hamda advokatning protsessual rolini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan mazkur yangilanishlar sud-huquq tizimini demokratlashtirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda adolatli sudlovni ta'minlash yo'lidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli taftish instansiyasida advokat faoliyatini yanada rivojlantirish va uning protsessual vakolatlarini kengaytirish kelgusidagi huquqiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.
3. Vohidov M.M. Jinoyat ishlarining sudga qadar yuritilishida advokatning vakolatlari: Risola. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi yuristlar malakasini oshirish markazi, 2021. – 20 b
4. Mavlonov F., O'ktamov A. Advokatura faoliyati takomillashuvi. 2025 / Journal of marketing, business and management
5. M .H. Rustambayev, U.A. Tuxtasheva. O'zbekiston respublikasida advokatlik faoliyati. Toshkent davlat yuridik instituti. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari m iiliy jamiyati nashriyoti, 2012 — 78 b